



MODERN TRENDS IN THE TRANSFORMATION OF THE HARMONY OF RELIGIOUS AND SECULAR CULTURE IN SOCIETY

Azimjon A. Abdullayev

researcher

Namangan State University

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: religion, globalization, secular politics, state, religious organizations, ideology, religious scientists, terrorism, mosque, church, youth, seperatism.

Received: 16.09.24

Accepted: 18.09.24

Published: 20.09.24

Abstract: In the process of globalization, each nation seeks to identify its national identity, glorify its national symbols, without losing its image, relying on its own unique tradition and pillars of national consciousness. Our religious youth should also respect the principle of a secular state, the language and mentality of our nation, history, tradition and heritage. The formation of respect for the concepts of secular and national dignity in the worldview and moral position of civil servants in the religious sphere consists in educating religious specialists committed to national interests and civic duty, ensuring the rapid innovation and industrial modernization of our country.

JAMIYATDA DINIY VA DUNYOVIY MADANIYAT UYG‘UNLIGI TRANSFORMATSIYASIDAGI ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Azimjon A. Abdullayev

tadqiqotchi

Namangan Davlat Universiteti,

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: din, globallashuv, sekulyar siyosat, davlat, diniy tashkilotlar, mafkura, diniy ulamo, terrorizm, masjid, cherkov, yoshlar, seperativizm.

Annotatsiya: Globallashuv jarayonida har bir xalq o‘ziga xos an’ana va milliy ong ustunlariga tayangan holda, o‘z qiyofasini yo‘qotmasdan, o‘zining milliy o‘zligini aniqlashga, milliy ramzlarini ulug‘lashga intiladi. Dindor yoshlarimiz ham dunyoviy davlat tamoyiliga, millatimiz tili va mentalitetiga, tarixiga, an’ana va merosiga

hurmat bilan qarashlari kerak. Davlat xizmatchilarining diniy sohadagi dunyoqarashi va axloqiy pozisiyasida dunyoviy va milliy qadr-qimmat tushunchalariga hurmatni shakllantirish milliy manfaat va fuqarolik burchiga sodiq diniy mutaxassislarni tarbiyalash, mamlakatimizning jadal innovation va sanoat modernizatsiyasini ta'minlashdan iborat.

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТРАНСФОРМАЦИИ ГАРМОНИИ РЕЛИГИОЗНОЙ И СВЕТСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ОБЩЕСТВЕ

Азимжон А. Абдуллаев

исследователь

Наманганский Государственный Университет

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: религия, светская политика, государство, религиозные организации, идеология, религиозный писатель, терроризм, мечеть, церковь, молодежь, сепаратизм.

Аннотация: В процессе глобализации каждый народ, опираясь на свои традиции и столпы национального сознания, стремится определить свою национальную идентичность, прославить свои национальные символы, не теряя при этом своего имиджа. Наша религиозная молодежь также должна уважать принцип светского государства, язык и менталитет нашей нации, историю, традиции и наследие. Формирование уважения к понятиям светского и национального достоинства в мировоззрении и нравственной позиции государственных служащих в религиозной сфере заключается в воспитании религиозных специалистов, верных национальному интересу и гражданскому долгу, обеспечении ускоренной инновационной и промышленной модернизации нашей страны.

KIRISH

Jahonda sodir bo'layotgan diniylik va dunyoviylik masalalarining globallashuv ta'sirida keskinlashuvi axborotlashgan jamiyatda sekulyarizm omilining takomillashirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Halqaro hamjamiatda diniy omilning o'rni va ahamiyati, jamiyat hayotiga ta'siri, boshqaruvida sekulyar siyosatning roli hamda hozirgi ijtimoiy beqaror mamlakatlar kundalik turmush-tarziga ta'siri, diniy nizo va ayirmachilik harakatlarining avj olishi natijasida yuzaga kelayotgan urushlar, aholi migratsiyasi, qochoqlar oqimining o'sib borishi diniylik va dunyoviylik muammosining global ahamiyatini o'rganishni taqozo etmoqda. Jamiyatni rivojlanib

borishi insonning erkin turmush-tarzi va hayotiy orzu-umidlarini amalga oshirish jamiyatda mavjud ijtimoiy institutlar, ijtimoiy guruh va qatlam kabi jamoat birlashmalari faoliyatini yuksaltirish doir ishlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ASOSIY QISM

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish, uni diniy qadriyatlar bilan uyg‘unlikda rivojlantirib borish bugungi kunning ustuvor masalasidir. Diniy qadriyatlar bilan uzviy fuqarolik jamiyatini yuksaltirilish, xalqimizning ijtimoiy, ma’naviy, iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, milliy madaniyatimiz sofligini saqlash va vorisiylikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini tadqiq etish nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. “Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelayotgan odob-axloq”[1. – Б. 266.] masalalari Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini rivojlantirishda, an’anaviy va zamonaviy qadriyatlar dialektik determinizmini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etib, jamiyatda diniylik va dunyoviylikning ijtimoiy o‘lchovlarini belgilab beruvchi ijtimoiy mezon hisoblanadi.

Aholisining ko‘philigini musulmonlar tashkil qiluvchi Markaziy Osiyo davlatlarida din va davlat munosabatlariiga oid sekulyar siyosat, diniy e’tiqod erkinligi bilan bir qatorda diniy radikalizm, islomizm va diniy ekstremizm hodisalarining kelib chiqishiga doir sabablari va dunyoviy davlatga tahdidlari haqida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan Germaniyaning Fridrix Ebert jamg‘armasi va Imom Buxoriy ilmiy Markaz[2] lari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

XX asning oxirlariga kelib mustaqil ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo‘liga kirgan Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston ham “diniy uyg‘onish” davrini boshdan kechirdi, jahon tendensiyasi maqomiga erishgan diniy jarayonlar ta’siriga uchradi. Jahonda 1989-yil “Berlin devori” qulashi, ikki Germaniyaning qo‘shilishi va “sovuv urush” davrining yakuni va 2001-yilning 11-sentyabirda AQSHda yuz bergen terroristik harakat ta’sirida “dinning “siyosiy subyekt”lik mavqeい bilan bog‘lash va ifodalash mumkin”[3]. Markaziy Osiyo, xususan, mustaqil O‘zbekiston sharoitida esa dinding ijtimoiy jarayonlarning muhim subyektiga aylanishi “desekulyarizatsiya”, ya’ni uni jamiyat hayotidagi o‘rni va rolini ortib borishi milliy mustaqillik va u bilan bog‘liq bo‘lgan milliy ozodlik, qadriyatlarni tiklash va milliy o‘zlikni anglash tendensiyasining shakllanishi bilan bog‘liq.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy mustaqillikni barcha sohalarda saqlash, mustahkamlash taniqli faylasuf – siyosatshunos olim S.Otamurodov ta’kidlaganidek, mas’uliyatli vazifaga aylanmoqda[4. – 230 6.]. Ushbu vazifa Prezident Sh.Mirziyoyev olg‘a surgan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini va unda jamiyat oldiga qo‘ygan ustuvor vazifalar, ularni bajarish bilan uyg‘un.

Globallashuv beixtiyor O‘zbekistonni xalqaro transmilliy jarayonlar domiga tortadi. O‘zbekiston taraqqiyoti xalqaro hamjamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlariga uyg‘unlashuvisiz mumkin emas. Buni O‘zbekistonning rivojlangan davlatlar bilan o‘zaro strategik hamkorligining tobora kengayishi, hatto qo‘sni Afg‘oniston “Tolibon” rahbarlari bilan do‘stona munosabatlarining birinchilardan bo‘lib yo‘lga qo‘yilishi, o‘zaro manfaatdorlik siyosatini olib borayotganligi globallashuv sharoitida milliy o‘zbek davlatining strategiyasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un ekanligi isbotlab turibdi[5. – 130 c.].

Globalashuv va jamiyat hayotining liberallahushi va demokratlashushi sharoitida chuqr o‘ylangan sekulyar siyosat o‘z tatbiqini turli ijtimoiy texnologiyalar vositasida amalga oshirilishini taqozo qiladi. Buni tasavvur qilish uchun “texnologiya” kategoriyasining mazmun-mohiyatini bilish lozim. O‘zbek tilida nashr qilingan va ko‘zga ko‘ringan jamiyatshunos olimlarimiz tomonidan milliy g‘oyanining targ‘ibot texnologiyalari masalasiga bag‘ishlangan jamoaviy kitobda “texnologiya – zamonaviy ilmiy-amaliy tafakkur uslubi”[6. – Б. 22.], deb baholanadi.

Aslini olganda esa “texnologiya” iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u ishlab chiqarish, yaratish, barpo etish jarayonini ifoda etadi. “Texnologiya” atamasi asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy hayotda va ilmiy tadqiqot sohasida ommalashdi. Ushbu kategoriyaning variantlari xilma-xil – “ta’lim texnologiyasi”, “pedagogik texnologiya”, “targ‘ibot texnologiyalari”, “innovatsion texnologiyalar” va h.k. ko‘rinishlarga ega. Aslida “texnologiya” biror bir buyumni yoki tovari ishlab chiqarish, yaratish va barpo etishni ifoda etuvchi tushunchadir. U XX asr oxirlariga kelib ijtimoiy sohada ham ishlatila boshladi. Jitmoiy texnologiya muayyan maqsadni amalga oshirishga mo‘ljallangan siyosiy tadbirlar, usullar, vositalar majmuasi bo‘lib, muayyan maqsadlarni ko‘zda tutadi[7].

XXI asrga kelib biron bir siyosiy maqsad, manfaat, iddao muayyan ijtimoiy texnologiyalarni qo‘llash vositasida erishiladi. U muayyan ketma-ketlikka asoslanadi. Masalan, bugun jahon yetakchi davlatlari tomonidan “yumshoq kuch” (Soft power) nomli texnologiya keng qo‘llaniladi. “Demokratik tranzit”, “rangli inqilob”, “ta’limga yordam”, “inson huquq va erkinliklari qaror topishiga ko‘maklashish” nomlari bilan ifoda etiladigan ijtimoiy texnologiyalar bugun yetakchi davlatlar tomonidan o‘zları xush ko‘rmaydigan, “bebosh”, “qaysar”, avtoritar tartibotli davatlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Bugungi yadro asrida katta urush, harbiy tazyiq xavfli hisoblanadi. Uning o‘rniga “axborot urishi”ga asoslanuvchi, inson ongiga ruhiy-psixologik ta’sir o‘tkazuvchi “texnologiyalar”dan foydalanish ancha arzonga tushadi. Mamlakatning aholi noroziligiga sabab bo‘lguvchi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muammolaridan ustamonlik bilan foydalana bilish – bugungi ijtimoiy texnologiyalar uchun kasbiy ish bo‘lib qoldi.

Bugungi eng samarali ko‘rinishi – media makonda fuqarolarga ruhiy-ijtimoiy manipulatsion ta’sir texnologiyalaridir. “Mavjud diniy tashkilotlar internet muhitida amalga oshiradigan kasbiy faoliyatning bir qancha shakllari bo‘lib, jumladan, diniy ma’lumotlarni onlayn yig‘ish, marosim tafsilotlarini onlayn tarzda o‘tkazish, missionerlik va dogma targ‘iboti... Internetda turli diniy tashkilotlar faoliyatini tahlil qilganimizda, protestant diniy guruhlari, yangi diniy oqimlar va musulmonlar tomonidan ko‘rsatilishini ko‘ramiz”[8].

Agar hokimiyat korrupsiyalashgan, turli ijtimoiy qusurlarga yo‘l qo‘yayotgan bo‘lsa, bir so‘z bilan ifodalaganda ijtimoiy beqarorlik uchun shart-sharoit shakllansa – ijtimoiy norozilik kayfiyatları shakllanadi. Bu – jamiyat hayotini izdan chiqarish, konfliktogen jtimoiy vaziyatlarni paydo qilish uchun qulaylik tug‘diradi. Hech qanday ijtimoiy hodisa muayyan sabablersiz paydo bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev o‘z prezidentlik vakolatiga kirishishi bilanoq bu jihatni anglay oldi va barcha katta-kichik rahbarlarni, davlat xizmatchilarini xalqni “rozi qilish” asosiy vazifalardan biri ekanligi xususida ogohlantirdi. Bu borada Abu Nosir Forobiy “Ularning o‘zlaridan saylangan rahbar yoki boshliqlar hokimi mutloq bo‘lmaydi. Ular odamlar ichidan ko‘tarilgan, sinalgan eng olivjanob, rahbarlikka loyiq kishilar bo‘ladilar. Shuning uchun bunday rahbarlar o‘z saylovchilarini to‘la ozodlikka chiqaradilar, ularni tashqi dushmanidan muhofaza qiladilar”[9. –Б. 190.] deb davlat boshqaruvida demokratik tamoyillarni ta’minalash bilan bog‘liq axloqiy va madaniy qadriyatlarni tizimlashtiradi.

Bugungi G‘arb “ommaviy madaniyati” transseksualizm, bir jinsli nikoh va h.k. g‘ayriinsoniy hodisalar xudosi, e’tiqodi yo‘q, hayvoniy instinktlar quliga aylangan, inson qiyofasidagi, biroq o‘z davlatida fuqarolik legitimligiga ega “erkin” kishilar axloqidir. G‘arbda o‘rtalarda yuzaga kelgan, natijada G‘arbni Sharqqa nisbatan fan, texnika va texnologiyasi ilgarilab ketishiga olib kelgan sekulyar siyosatning XX asr boshlariga kelib desekulyarizatsiyalashuvi bunday noxush, hatto G‘arb ilg‘or ziyorolarini ham tashvishga solayotgani bejiz emas. Desekulyarizatsiya – bu liberal demokratiya, inson huquq va erkinliklariga din omilini hisobga olmay legitimlilik huquqini berish demakdir. Bu – ma’nana nosog‘lom, bilimsiz kishiga o‘qotar qurolni berishga teng adashishdir. Faqat ma’naviyat, burch, vijdon va h.k. tushunchalar inson faoliyatining yuksak ijtimoiylashuvini ta’minlaydi, jamiyatga xavf tahdidini yuzaga chiqarmaydi. O‘zbek siyosatshunos olimlaridan X.Axmedov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, ma’naviy hayat dinamikasini, umumiyl qonuniyatlarni hisobga olmasdan bugungi dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muammolarni hal etish mumkin emas[10. – 210 б.].

Globallashuv beixtiyor O‘zbekistonni xalqaro transmilliy jarayonlari bilan yonma-yon yashash zaruriyati talab qilmoqda. O‘zbekiston taraqqiyoti xalqaro hamjamiyat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlariga uyg‘unlashuvvisiz mumkin emas. Buni O‘zbekistonning rivojlangan

davlatlar bilan o‘zaro strategik hamkorligining tobora kengayishi, hatto qo‘shti Afg‘oniston “bilan do‘stona munosabatlarining yo‘lga qo‘yilishi, o‘zaro manfaatdorlik jarayonlarini olib borayotganligi globallashuv sharoitida milliy o‘zbek davlatining strategiyasi umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘un ekanligi isbotlab turibdi. “Chunki, bugungi globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda, xususan, yoshlar ham bu jarayondan holi emas. Bu bir tomondan umumiyligi, tabiiy jarayon. Chunki hozirgi axborotlashgan jamiyat muhitidan talaba-yoshlar turli omillar orqali xabardor bo‘lmoxda”[11. –Б. 11.]. “Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi”[12. – 505 6.]

Dunyoviy davlat fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida diniy birlashmalar faoliyatini qonun doirasida tartibga solayotgani sababli, diniy tuzilmalardan qonunlar va me’yoriy hujjatlarga qat’iy rioya etish, o‘z faoliyatini qonun doirasida amalga oshirishni talab qiladi. Diniy nifoq, murosasizlik davlat va jamiyat uchun xavfli bo‘lganidek, qonunlar, inson huquq va erkinliklarining buzilishi ham xavflidir. Birinchi holatda diniy aqidaparastlik, ikkinchi holatda esa huquqiy nigelizm. Dunyoviylik tushunchasi o‘zaro hamkorlik va hamjihatlikka, dunyoviy davlat tushunchasi esa huquqiy davlatga, davlatchilik va milliy xavfsizlikning mustahkam poydevoriga asoslanadi.

“Dunyoviylik” tushunchasi konstitutsiyaviy asosda davlatning diniy sohada ochiq va shaffof siyosat yuritishini, fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlashini, din va davlat siyosatini aralashtirmaslikni anglatadi[13. – С. 113-117.]. Ya’ni, dunyoviylikni ateizm, dahriylik yoki dinni inkor etish emas, balki davlatning diniy bo‘limgan, huquqiy tamoyillar asosida boshqaruvi deb tushunish kerak. Binobarin, dunyoviy davlat diniy e’tiqod erkinligini kafolatlashi bilan qadrlidir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga bo‘lgan qarashlaridan qat’i nazar, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotning barcha sohalarida tengdirlar. Fuqarolarning diniy e’tiqodlarini cheklash yoki ularning diniga qarab har qanday imtiyozlar berish, fuqarolarning diniy tuyg‘ularini haqorat qilish, shuningdek dindorlar hurmat qiladigan ob’yektlar, inshootlar va joylarni haqorat qilish O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan javobgarlikka sabab bo‘ladi. Xuddi shu paytni o‘zida, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, dinga bo‘lgan qarashlaridan qat’i nazar, qonun oldida teng javobgardirlar. Hech kim diniy e’tiqodiga ko‘ra o‘z fuqarolik burchini bajarishdan bosh tortishga haqli emas, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Diniy e’tiqodga ko‘ra bajarilishi kerak bo‘lgan bir burchni boshqasiga almashtirishga faqat O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yo‘l qo‘yiladi. O‘z navbatida, diniy e’tiqod

erkinligiga rioya etilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan mamlakat qonunchiligidagi belgilangan o‘z vakolatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda diniy vaziyat yanada yaxshilanishiga, dunyoviy jamiyatni orzu qilgan yurtdoshlarimiz tinchlik va do’stlikni hamisha targ‘ib etib, ajdodlarimiz an’analarini davom ettirib, kelajak avlodlarga yetkazishlariga ishonchimiz komil. Mamlakatimizning diniy pozisiyasi jamiyatda dunyoviylik va aql-zakovat, odob-axloq va farovonlik, milliy an’analar va ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish, ularni millatlararo va konfessiyalararo munosabatlarga hurmat madaniyati, dunyoqarash va bag‘rikenglik va odob-axloq qoidalarini shakllantirishga xizmat qiladi. XXI asrning jahon tuzumi va qiyofasi aniq bo‘lib turgan hozirgi davrda demokratiyani ulug‘lagan dunyoviy davlatning diniy pozisiyasi chinakam sivilizatsiyalashgan jamiyatning ma’naviy rivojlanishiga, insoniy qadriyatlarga, mamlakatimiz xavfsizligiga xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. – Тошкент: O‘zbekiston, 2022. – Б. 266.
2. Ислом ва дунёвий-маърифий давлат. 2002 йил 5-6 параграфлари Имом ал-Бухорий ёдгорлиги мажмуасида ўтказилган халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Тошкент: Имом ал-Бухорий ва Фридрих Эберт жамғармаси, 2003.
3. Журавский А.З., Садов О.В., Фетисов А.В. Субъекты миропорядка XXI века // Глобализация и столкновения идентичностей. Материалы международной интернет конференции 24 февраля – 14 марта 2003 г. Под ред. А.Журавского, К. Костюкова. – М., 2004.
4. Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асрараш масъулияти (сиёсий фалсафий кирралари). – Т.”O‘zbekiston”, НМИУ, 2018. – 352 б.; Саидов У. Глобаллашув ва маданиятлараро мулоқот. – Т.: “Akademiya”, 2008. – 230 б.
5. Адылходжаева С.М. Глобализация и стратегия государства. – Т.: ТГЮИ, 2007ю – 130 с.
6. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар лугати. – Т.: “Akademiya”, 2007. – Б. 22.
7. Умарова Н., Исломбеков У. Сиёсий технологиялар. Ўкув қўлланма. – Т.: “Akademiya”, 2007.

8. Fedorova M. V. Religious identity in the modern digital world. Sotsiodinamika[Sociodynamics], 2020, no. 6, - p 70. <https://doi.org/10.25136/2409-7144.2020.6.33085>
9. Абу Носир Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Тошкент: А.Қодирий нашриёти, 1993. –Б. 190.
10. Ахмедов X. Маънавий ҳаёт динамикаси. Монография. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2018. – 210 б.
11. Бозоров О.Х. Талаба-ёшлар маънавий-ахлоқий онгини юксалтиришда ғоявий-мафкуравий тарбиянинг аҳамияти. “Ҳозирги замон фалсафаси: холати ва тараққиётининг истиқболлари” мавзусидаги республика илмий масофавий онлайн конференция материаллари. Тошкент2021 йил 15 апрель. –Б. 11.
12. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 505 б.
13. Abdullayev A. FUQAROLIK JAMIYATIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK UYG ‘UNLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 113-117.